

## Matematika

1.  $654321$  ni o'n minglar xonasigacha yaxlitlang.
  - A) 650000
  - B) 654000
  - C) 654320
  - D) 6500000
2. Hisoblang:  $5+10+15+\dots+100$ 
  - A) 130
  - B) 1050
  - C) 1300
  - D) 1005
3.  $(19-7b)+(9b-8)$  harfli ifodaning qiymatini toping. Bunda  $b=2$ 
  - A) 11
  - B) 13
  - C) 15
  - D) 26
4. Soddalashtiring:  $(10+7x)\cdot 6-12x$ 
  - A)  $60+54x$
  - B)  $60+30x$
  - C)  $16+30x$
  - D)  $60+42x-12x$
5. 2006 sonining kubi qanday raqam bilan tugaydi?
  - A) 0
  - B) 2
  - C) 4
  - D) 6
6. Yoyiq burchak necha gradusga teng?
  - A)  $45^\circ$
  - B)  $90^\circ$
  - C)  $180^\circ$
  - D)  $270^\circ$
7. Biror burchak uchidan chiquvchi va uni teng ikkiga bo'luvchi nur nima deb ataladi?
  - A) Mediana
  - B) Vatar
  - C) Yarim burchak
  - D) Bissektrisa
8. Soatning minut mili 15 daqiqada necha gradusga buriladi?
  - A)  $90^\circ$
  - B)  $180^\circ$
  - C)  $45^\circ$
  - D)  $135^\circ$
9. Tomoni  $24 \text{ sm}$  bo'lgan kvadratni yuzasi  $144 \text{ sm}^2$  bo'lgan nechta kvadratchalarga ajratsa bo'ladi?
  - A) 2 ta
  - B) 4 ta
  - C) 8 ta
  - D) 12 ta
10.  $\sqrt[3]{729}=?$ 
  - A) 3
  - B) 9
  - C) 27
  - D) 81

## Ona tili

1. Berilgan qaysi gaplarda faqat ot turkumiga mansub so'zlar qatnashgan?

- 1. Mehnat - hayot tomiridagi qon.
  - 2. Baxtning kaliti mehnatning chontagida.
  - 3. Yumshoq paxta qattiq mehnatning mahsulidir.
  - 4. Mashaqqatning mahsuli farog'atdir.
  - 5. Bugungi mehnat - ertaning rohati.
- A) 1, 2, 4, 5  
B) 2, 4  
C) 1, 2, 4  
D) 1, 2

2. Otasini hovlining chekkasidagi zax uyga ko'chirdi.

Ushbu gapdagi fe'lning nisbatini aniqlang.

- A) aniq nisbat
  - B) o'zlik nisbat
  - C) majhul nisbat
  - D) orttirma nisbat
3. Men shu uzundan uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanchli ahvolga tushmaganman. Ushbu gapdagi kishilik olmoshi qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) aniqlovchi
  - B) ega
  - C) to'diruvchi
  - D) hol
4. Javoblardan to'g'ri yozilgan nomni aniqlang.

- A) Xususiy tadbirdorlik va Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
- B) Xususiy tadbirdorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
- C) Xususiy tadbirdorlik va kichik biznesni qo'llab quvvatlash jamg'armasi
- D) Xususiy Tadbirdorlik va Kichik

Biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi

5. Sabab ravishi qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Xayrullo bu shartga noiloj ko'ndi.
- B) U qah-qah urib yuborishdan o'zini arang tiyib, ko'zlarini suzdi.
- C) U esa hamon qo'rqoqligi tufayli kechalari ko'chaga chiqmasdi.
- D) Oddiy avtobus bo'lмаганligidan kechikib keldi.

6. Xoh ishoning, xoh ishonmang, bu gaplardan bexabarman.

Ushbu gapda bog'lovchining qaysi turi qatnashgan?

- A) biriktiruv bog'lovchisi
- B) zidlov bog'lovchisi
- C) bog'lovchi qatnashmagan
- D) ayiruv bog'lovchisi

7. Qaysi gapda o'zlik nisbatidagi fe'l ishtirok etmagan?

A) Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zdan haddan ziyoda sevindi.

B) Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'ildi qorong'i jarga.

C) Yaltiraydi, doim tovlanar

Oy nuriga - cho'miluvchi tosh.

D) Shu boisdan u o'ttizinchi yillarning boshida adabiyotdan chetlatilgan, -- uning uchun nashriyot eshiklari yopib qo'yilgan.

8. Turdosh otlar qatorini aniqlang.

- A) lola, Shavkat, Ahmad, malika
- B) rayhon, gazeta, qilich, urishish
- C) qalam, bola, terak, ko'ylak
- D) sevinch, taskin, vafo, iboli

9. Otrashgan sifat qaysi gapda beril-gan?

A) Dilshod tun-u kun tinmay ishladi.

B) Chiroylı kiyungan bolalar saf tortishdi.

C) Safimizda qoloqlar qolmadı.

D) Kasal bolani darrov shifokorga ko'rsatdik.

10. Qaysi qatordagi -i, -si egalik qo'shimchasi o'z vazifasini yo'qotgan?

1. Kechasi yomg'ir yog'di.

2. Ona tuni bilan uxlamaadi.

3. O'tgan yili hosil yaxshi bo'lgan.

A) 1, 2, 3

B) 1, 2

C) 2, 3

D) 1, 3

## Tarix

1. O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik kompaniyasi qachon tashkil etilgan?

- A) 1992-yil
- B) 1994-yil
- C) 1996-yil
- D) 1998-yil

2. 2017-yilda Toshkent xalqaro aeroportiga kimning nomi berilgan?

- A) Amir Temur
- B) Mirzo Ulug'bek
- C) Islom Karimov
- D) Amir Nasrullo

3. "Xotira" kitobi nashr etilgan yilni aniqlang.

- A) 1993-yil
- B) 1994-yil
- C) 1995-yil
- D) 1996-yil

4. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining nechta darvozasi bo'lган?

- A) 8 ta
- B) 10 ta
- C) 12 ta
- D) 15ta

5. "Muqanna" so'zining ma'nosi nima?

- A) Hunarmand
- B) Sehrgar
- C) Niqobdor
- D) Ko'chmanchi

6. Abdumalik to'ra qayerda vafot etgan?

- A) Balx
- B) Makka
- C) Peshovar
- D) Bomiyon

7. Amir Sayid Olimxon qachon Buxoroda islohotlar o'tqazish to'g'risidagi farmonni imzoladi?

- A) 1917-yil 27-mart
- B) 1917-yil 7-aprel
- C) 1917-yil 17-may
- D) 1918-yil 2-dekabr

8. Sopollitepa manzilgohi qaysi viloyatda joylashgan

- A) Qashqadaryo
- B) Farg'ona
- C) Surxondaryo
- D) Xorazm

9. Istiqlol yillarda mamlakatimiz nechta davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan?

- A) 150 ta
- B) 133 ta
- C) 44 ta
- D) 83 ta

10. Kidariylar davlatining poytaxti bo'lган shahar qaysi?

- A) Choch
- B) Balx
- C) Kat
- D) Tunkat



*Abituriyentlar uchun maxsus Telegram Kanal: @IlmDovoni*